

---

## "YOZ O'TMOQDA SOZ"

Ayni kunlarda Toshloq tumanidagi maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolajonlarni yozgi sog'lomlashtirish mavsumi qizg'in davom etmoqda. Ularning miriqib hordiq chiqarishlari, jismonan chiniqishlari va salomatliklarini mustahkamlashlari, ma'naviyatlarini boyitishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Muassasalarda "Yoz o'tmoqda soz" shiori ostida qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazilib, bolajonlarga quvonch ulashilmoxda.

Tumandagi 15-sonli KTIMTTda guruh tarbiyachisi Nigoraxon Sultonova "Yoz o'tmoqda soz" shiori ostida "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" mavzusida tadbir tashkil etdi. Tadbirda bog'chada tarbiyalanayotgan bolajonlar uchun ertak qahramonlarini sahna ko'rinishlari, ertaklar va musiqiy dasturlar namoyish etildi.

2024-07-02 09:01:24